

**„SAVDOGARLAR SHAHRI “-POYKENTNING QADIMIY TARIXI VA MUZEYI
FAOLIYATI**

Yunusov Arman Fayzulla o'g'li

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
muzeyshunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi
2-kurs talabasi*

Annotasiya :Ushbu maqola qadimgi Poykentning ko'hna tarixi , arxeologlar olib borgan tadqiqotlar , amalga oshirilayotgan tadbirlar, qonun qoidalar , Qadimgi Poykent tarixi muzeyida saqlanayotgan eksponatlari va bugungi kundagi faoliyatiga bag'ishlanadi .

Kalif so'zlar : Poykent , muzey , tarix , arxeolog , Osiyoning pompeyi , eksponat .

Qadimiy kent sanalgan Poykent Buxorodan 50 km janubi-g'arbda, Jondor va Qorako'l tumanlari tutashgan hududda, Zarafshon daryosining quyi oqimida Movorounnahr muzofotining janubiy qismida joylashgan.Tarixiy manbaaga ko'ra, eramizning III – IV asrlarining ikkinchi yarmida Sosoniylarning bosqinchilari bilan bog'liq siyosiy voqealar natijasida O'rta Osiyo janubida joylashgan Poykent shahri qal'asi yangi devor bilan o'rab olingan. Qal'a mudofaasi, mudofaa devori yonida xona va dahliz yo'lagi tomi shiffidagi maydonchadan shinaklar orqali amalga oshirilgan.Devor yorar quollariga dosh beradigan mustahkam tagkursi qal'a devorlarini o'z yelkasiga ko'tarib turgan.

Qadimgi Poykend shahri to'g'risida Xitoy, arab mualliflari qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Maydoni 21 ga.bo'lib IV–III asrdan boshlab qad ko'targan.Qadimgi shahar atrofida ko'plab karvonsaroylar paydo bo'lib, ular Buxoroga sayohat qilgan ko'plab savdogarlar uchun to'xtash joyi vazifasini o'tagan. Arxeologlar bu yerda XI asrga oid qadimiy jome masjidining qoldiqlarini topganlar. Ammo XI asrda Zarafshon daryosining sayozlanishi tufayli, Poykentga suv kelishi to'xtagan, bu esa shaharning inqirozga uchrashiga sabab bo'lgan. Asrlar o'tgach bu yerlar sahroga aylandi, qum ostidagi xarobalar olimlarga qadimgi tarixning ulkan xazinasini bitta to'plamga jamlashga yordam berdi.

707-yilda Qutayba katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib, Buxoro vohasiga kiradi. Uning bu yurishida sotqin Balx dehqoni va chag'on-xodotlarning harbiy kuchlari ishtirok etadi. Poykandni qamalga oladi. Sug'd va boshqa viloyatlardan kelgan kuchlar bilan poykandliklar qattiq turib,

arablarga qarshilik ko`rsatadilar. Qamal ellik kun davom etadi. Arablar shahar devoirs ostidan lahim qazib, unga ruhna uradilar va ichkariga bostirib kiradilar. Poykand egallanib qo`lida qurol tutishga qodir barcha erkak zoti qirib tashlanadi. Xotin-xalaj va yosh bolalar asirga olinib, shahar vayron etiladi. Poykand uzoq yillar davomida xarobazor bo`lib yotadi.

Somoniylar hukmronligi davrida shahar o`z rivojining eng cho`qqisiga chiqib, yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylandi. Olimlar bu yerda qadimgi So`g`diyona madaniyatiga tegishli noyob materiallarni topdilar: uch rangli rasm solingan sirlangan keramika, kimyoviy tajribalar uchun ko`k shisha buyumlar, atirlar va dori-darmonlarni saqlaydigan idishlar. Ushbu betakror shahar ming yillar davomida cho`l qumliklari ostida qolib ketgan, bu esa uning qoldiqlarini hozirgi kungacha saqlab qolishga yordam berdi. Aynan shu uchun arxeologlar bu hududni Osiyoning Pompeyi deb nomlashgan. Ibn al-Faqix va boshqalarning asarlarida bu go`sha "Madina al Tujjor" – "Savdogarlar shahri" deya e`tirof etilgan. Poykent ta`riflanishicha, So`g`dning "marvaridmonand" shahri bo`lgan.

Buyuk Ipak yo`lida joylashgani, qulay geografik imkoniyatga egaligi bois, shahar xalqaro tranzit savdoda ishtirok qilishini e`tiborga olib, X asrda yashagan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja`far Narshaxiy o`zining "Buxoro tarixi" asarida "Baykend aholisi hammasi savdogar bo`lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz orqali boriladigan mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo`lganlar", - deb yozib qoldirgan. Poykandni, umuman shahar sifatida yo`q bo`lishi XI asrga to`g`ri keladi. Sabab, Buxorodan Zarafshonning yuqori qismida, Samarqand taraflarda odamlar ko`payib, suv ko`p ishlatilganidan keyin Buxoro vohasida suv kamayib borgan, eng paski qismida birinchi bo`lib suv tanqisligi natijasida odamlar asta- sekin shaharni tashlab ko`chib ketishgan. Uylar keyin buzilib ketib, vayronaga aylangan.

1957-yilda arxeolog A.P. Okladnikov Sibirda Angara daryosining chap irmog`i bo`lgan Unga daryosi bo`yidagi VI-XI asrlarga oid arxeologik yodgorliklarni qazish jarayonida kimyoviy tarkibi Poykend shishalariga mos shisha buyumlar topgan. Bu narsa Poykenda ishlab chiqarilgan shisha buyumlarning savdo iqtisodiy aloqalar tufayli olis Sibir regionlariga ham tarqalganligini isbotlab berdi. Tadqiqotchilar Beleniskiy, Bentovich, Bolshakovlar VII asr va VIII asr boshlarida Poykend, O`rta Osiyoda yagona, erkin shahar, savdo markaziga aylangan degan xulosaga kelishgan. 1954-yilda qadimgi Poykendning shaharga tutash qismlarini o`rganish maqsadida O`zbekiston FA. Tarix va arxeologiya Institutining maxsus tadqiqotlar o`tkazdi. Natijada shahardan shimoliy sharq tomonda joylashgan qadimiy nekropol (xilxona) qoldiqlari topib o`rganildi.

1999 –yildan boshlab esa Rossiya Davlat Ermitaji va O‘zbekiston Respublikasi FA.Arxeologiya instituti tomonidan har yili Sankt Peterburgda “Материалы Бухарской археологической экспедиции” nomi ostida Poykendda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasi e’lon qilingan.

Topilgan 5000 dan ziyod nodir muzey eksponatlari nafaqat qadimgi Poykend shahri tarixi, balki o‘zbek davlatchiligining ba’zi rivojlanish jihatlari tarixini, qadimgi o‘zbek shaharsozligi, madaniyati, san’ati, siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi, savdo-sotiq aloqalari tarixini ham o‘zida aks ettirgan. Shularni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi FA olimlari va Buxoro ilmiy jamoatchiligi takliflari asosida, Buxoro viloyat hokimining 2000 -yil 1 mayda № 73 – f sonli farmoyishi asosida Qadimgi Poykend shahri yaqinida “Qadimgi Poykend tarixi” muzeyi tashkil etildi.

Arxeologik qazishmalar jarayonida yosh arxeolog Elbek Sobirov tomonidan metalgan ishlov berish ustaxonasi, ya’ni xumdon topilgan. Xumdon miloddan avvalgi III-asrga taalluqli eng qadimiy topilma, deb hisoblanmoqda.Xumdonning topilishi esa shu ilmiy farazni haqiqatga aylantirdi. Xumdonidan tashqari, ekspeditsiya a’zolari tomonidan so’g’d yozuvi tushirilgan idishlar parchasi, Sosoniylar davrida zarb etilgan tanga va o’q-yoylar uchlari ham topildi. Idishlardagi so’g’d yozuvlari nusxasi so’g’d yozuvini o’qiy oladigan mutaxassisga jo’natilgan.

Muzey kirish zali, uchta asosiy zalidan iborat bo’lib, 1500 dan ortiq ekponatlarni namoyish qilmoqda. Muzey Poykend shahri urbanizatsiyasini to’liq yoritib beradi.Poykent muzey katta zali ekzpozitsiyasi X asrga oid sopol bo’lagiga yozib qoldirilgan yozuv bilan boshlanadi. Sopol bo’lagida:“Bismillahur al Roxmanir Rohiyim”, ya’ni “Dunyoda ham oxiratda ham rahmat qiluvchi Ollohu ta’oloning nomi bilan boshlayman bu ishni”, deyiladigan Qur’oni Karimning birinchi surasi boshlanishi, Qora tushda yozilgan.qo’yilgan sopol parchalarida o’sha davrdan bizgacha etib kelgan arabcha yozuvlar namoyish qilingan.

Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori loyihasi elon qilingan edi.

Turizm va madaniy meros vazirligi, Fanlar akademiyasi va Buxoro viloyati hokimligining:

- Buxoro viloyati Qorako’l tumanidagi “Qadimgi Poykent” arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish hamda Buxoro davlat muzey-qo’riqxonasi filiali “Qadimiy Poykent shaharchasi tarixi muzeyi” negizida ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etish;

- Poykent muzeyida arxeologiya ashyolari ko'rgazma-ekspozitsiyalari hamda arxeologiya tadqiqotlari bazasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullanadi.

Quyidagilar "Poykent" muzeyi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilanadi:

- "Qadimgi Poykent" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish, konservatsiyalash va asrab-avaylash, obyektida olib borilayotgan arxeologik qidiruv, qazishma, qutqaruv va nazorat ishlarini tashkil etish;

- Arxeologiya tadqiqot ishlari davomida ochib o'rganilgan arxeologiya ashyolari, noyob osori-antiqalarni restavratsiya va konservatsiya qilish;

- Poykent muzeyida yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazini tashkil etish va uning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish ;

2021-yilda qadimgi Poykent shahri qoldiqlari va ICYeSCOning Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritildi.

Muzeyning ilk o'rta asrlarni yorituvchi zalida Poykentdan topilgan sopol terrakota-ayol ma'buda haykalchasi namoyishga qo'yilgan. Bu haykalcha So'g'dning janubiy-g'arbidagi Poykent shahridan topilgan eng qadimgi san'at namunalaridan biri bo'lib, V- VI asrlarga mansubdir. Bu haykalcha So'g'dning janubiy-g'arbidagi Poykent shahridan topilgan eng qadimgi san'at Namunalaridan biri bo'lib, V- VI asrlarga mansubdir. Ayol ma'buda haykalchasi Zardushtiylik an'analari asosida maxsus qolipda qo'yilgan bo'lib, zardushtiylik e'tiqodidagi Anaxita timsoliga o'xshab ketadi.

Shuningdek muzey ekspozitsiyasidan rangtasvir namunalarining o'rin olganligini, unda qizil, qora, sariq va jigarrang bo'yoqlarda ishlangan ajoyib kompozitsiya qoldiqlarini ham ko'rish mumkin. Topilgan devoriy surat bo'laklarida tasvirlar jonli tarzda aks ettirilgan. Masalan ,devoriy suratlardan birida ayol nigohi shunchalik jozibali ta'sirchan aks ettirilganki, tomoshabin unga qaysi tomondan qaraydigan bo'lsa, go'yoki nigoh ham unga shu tomondan qarayotgandek bo'laveradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro vohasidagi Poykand shahri Eftaliylar davlatining poytaxti bo'lgan. Buni Narshaxiyning Poykand va uning ijtimoiy-siyosiy mavqei to'g'risidagi ma'lumotlari, qolaversa arxeologlar tomonidan uzoq yillardan beri amalga oshirib kelinayotgan arxeologik izlanishlar tasdiqlaydi. Shaharning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi unda mahalliy va xalqaro ahamiyatga molik savdo-sotiqning rivojlanishiga keng imkon ochgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan karvonsaroy, bozor va rasta qoldiqlari ushbu fikrni tasdiqlaydi. O'zbek xalqining yuksak madaniyati va san'ati taraqqiyotida xalqimizning o'tmishi, qadimiy ajdodlar, turmush tarzi, voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirish, Shuningdek, badiiy-estetik

dunyoqarashlaridan guvohlik beruvchi qadimgi Poykent shahar qoldiqlarining o'rnini juda katta bo'lib, muzey faoliyati ham bugungi avlod, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobojonova, Feruza Xayotovna. Buxoro me'moriy obidalari tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / F.X. Bobojonova .-Buxoro : Fan va ta'lim,2022.-284 b.

2. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika (o'quv qo'llanma) / «N avro'z» Nashriyoti. -T o s h k e n t, 2017. 128 bet.

3. Utayeva, Feruza Xolmamatovna O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi [Matn] : darslik.

4. <https://fayllar.org/arab-xalifaligining-tashkil-topishi-va-taraqqiyot-bosqichlari>.

5. <https://ilmlar.uz/buxorodagi-poykent-qadimgi-shahar-topilmasi/>

6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/hoykent-qadimgi-manzilgohi-osiyo-pompeyi/>.

7. <https://madaniymeros.uz>.